

## HOZIRGI ZAMON TARJIMASHUNOSLIK SOHASIDA BADIY ASAR TARJIMA MUAMMOLARI

**Sobirova Dilafruz Akrom qizi**

O‘zMU, Xorijiy filologiya fakulteti,  
Xorijiy til va adabiyoti kafedراسي.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda badiiy asarlar matnini bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish muammolari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari tasnifi ko‘rib chiqiladi, hamda badiiy asarlar tarjima muammolari xususiyatlari misollar yordamida tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** badiiy tarjima, badiiy matn, obrazlilik, badiiy tasvir, badiiy janr, g‘oyaviy mazmun va estetik ma‘no

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются проблемы перевода текста художественных произведений с одного языка на другой язык и классификация их особенностей, а также на примерах анализируются особенности проблем перевода художественных произведений.

**Ключевые слова:** художественный перевод, художественный текст, образность, художественный образ, художественный жанр, идейное содержание и эстетический смысл

**Annotation:** This article discusses the problems of translating the text of works of art from one language into another language and the classification of their features, and also analyzes the features of the problems of translating works of art using examples.

**Keywords:** literary translation, literary text, imagery, artistic image, artistic genre, ideological content and aesthetic meaning

### Kirish

Tarjimashunoslikning rivojlanish tarixi davomida tarjimaga qo‘yiladigan turli talablar mavjud bo‘lib, ularning bajarilishi tarjima muammolarini keltirib chiqardi. Bugungi kunda har bir sohada bo‘lgani kabi, tarjimashunoslik sohasida ham bir necha tarjima muammolari mavjud bo‘lib, ularning ba‘zilariga tarjimonlar, ba‘zilariga esa aynan tarjimani o‘quvchi shaxslar duch keladi. Shuningdek, aynan uchinchi turga kiruvchi va tarjimashunoslikning o‘zi uchun muammoga sabab bo‘luvchi muammolar tarjimaning tizimli muammolari hisoblanadi. Badiiy asarlar tarjimasiga nisbatan adabiyot sohasi singari so‘z san‘ati degan ta‘rifni qo‘llash mumkin. Zero, tarjima qilingan asar hosilasi bu orginal adabiyotning hosilasi demakdir. Har qanday tarjima qilingan badiiy asar bu ijodiy ish hisoblanib, u ijodkordan muayyan darajada alohida bilim, yondashuv va mahoratni talab qiladi. Xususan, tarjimashunos olimlar M. Fargal va A. Almanna tarjimani “...turli ko‘rinishlari, amalga oshirilishi va oqibatlari bilan ko‘p qirrali, ko‘p o‘lchovli jarayon” deb ta‘riflaydi. [1, 1] Tarjimon orginal matnda va aksincha, taqdim etilishi dargumon bir qator muammolarga duch keladi va ularni hal qiladi. Tarjimon badiiy asarlar tarjima jarayonida iste‘dodli ijodkor bo‘lishi ham lozim, zero, tuyg‘u va obrazlar olami adabiyotni chuqurroq anglash uchun tarjimon o‘zi qalban san‘atkor bo‘lishi lozim.

## Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Mazkur izlanishda qo'yilgan vazifalarni hal etib, mavzuni yoritishda ma'lum ko'rinishdagi tadqiq metodlaridan foydalanildi, jumladan, badiiy asarlarni tarjima qilishda tarjima muammolari va ularning xususiyatlari tahlilida hamda ularning tasnifiy belgilarini aniqlashda tavsiflash metodidan foydalanildi. Umuman olganda, to'plangan materialni tahlil qilish asosida tarjimashunoslik sohasida badiiy matnni tarjima qonuniyatlarini aniqlashni nazarda tutadigan induktiv- deduktiv yondashuv metodlaridan foydalanilgan.

## Natijalar

Mazkur maqola yozilishidan maqsad badiiy adabiyotda yaratilgan badiiy asarlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda mavjud muammolarni aniqlash va tarjima qilingan badiiy asarning asil mazmun-mohiyatini ifodalashda tarjimon mahorati, shuningdek, badiiy asar tarjimasida g'oyaviy mazmun va estetik ma'noni ifodalovchi tarjima vositalar obrazlilik, badiiy tasvir va badiiy janrlarni bir-biridan farqlarini aniqlashdan iborat.

## Muhokama

Badiiy tarjima turli madaniyatlarga mansub qadimgi va zamonaviy mualliflarning dramatik, ijodiy she'riyati va nasrini tarjima qilishni o'z ichiga oladi. Bu dunyo bo'ylab ko'proq odamlar o'z tillarida adabiy ijoddan bahramand bo'lishlariga imkon beradi. Badiiy tarjima bu asl manba - badiiy adabiyot hisoblangan tarjima turi demakdir. Badiiy matnlar tarjimasiga quyidagilar kiradi:

- kitoblar, maqolalar, hikoyalar va boshqa nasr turlarining badiiy tarjimasini;
- she'rlarning badiiy tarjimasini;
- reklama materiallarini tarjima qilish;
- boshqa matnlarni tarjima qilish.

Chet tilidan tarjima qilingan hikoya, she'r yoki boshqa adabiy asarni o'qiyotganda biz matnning uning mazmuni, hissiyotlari, xarakterlari bilan idrok qilamiz. Asarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayonida tarjimon uch bosqichni, **asl nusxani idrok etish, asl nusxa interpretatsiyalash** hamda **asl nusxani qayta ifodalash**. Birinchi bosqichda matn so'zma-so'z ya'ni filologik tarzda idrok qilinadi, ikkinchi bosqichda uslubiy omillarga e'tibor qilinadi. So'nggi uchinchi bosqichda ayrim til vositalarini uslubiy va ma'no –mazmunini anglashdan tarjimon asarning badiiy yaxlitligini, badiiy voqelik hodisasi, xarakterlar, ularning munosabati, muallifning g'oyaviy niyatini anglashga harakat qiladi.

Tarjima qilinayotgan adabiy asarlarning rang-barangligi turli janrlarga bo'lgan talabni ko'rsatadi. Adabiyotni tarjima qilish muhimligini inkor eta olmasak-da, tarjima jarayoni murakkab va oddiy kontent tarjimasidan farqli jarayonni o'z ichiga oladi. Bu tarjima ishlarining eng qiyin turlaridan biridir. Badiiy asar faqat g'oyaviy mazmundan emas, balki estetik ma'nodan ham iborat bo'ladi. Xususan, badiiy asar tarjimasida **drama** janrida ruhiy holat ifodasi, **tragediyada** fojia tasviri, **komediyada** kulgi chiqarish asosiy o'rin tutadi. Jumladan, quyidagi jumalarda ifodalangan tasvirda ham muallif ijobiy hamda salbiy mazmunni ifodalovchi so'zlardan mahorat bilan foydalanadi. *\*may ham ishq ham kishini botir, qo'rqmas qilib qo'yadi. Lekin may botirligi oqibatni ko'ruvchi aqlning mag'lub bo'lishidan bo'lsa, ishq shijoati haqiqat nurining g'olibligidandir. Birinchisi shaxsni falokatu halokatga olib boradi, ikkinchisi abadiy hayotu saodatga boshqaradi. \*may ham ishq ham kishini behush qiladi. Ammo may behushligi nodonlik va g'afolatning eng tuban darajasidir, ishq behushligi esa sezgirlik va ogohlikning eng oliy martabasidir.* [2, 3]

Muayyan adabiy asarda yaratilgan badiiy obraz (u qahramon yoki tabiat obrazi bo'ladimi) o'quvchiga ta'sir qilishi shubhasiz. Aynan badiiy asarlarda ifodalangan tasvirni ifodalash va muallif nutqini qayta jonlantirish tarjimondan bilim, yondashuv va mahoratni talab etadi.

### Xulosa

Mazkur maqolada badiiy adabiyotda badiiy asarlar tarjimasida tarjima jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan badiiy tarjima muammolar ko'rib chiqilgan va ularga qizqacha izohlar keltirilgan.

### References:

1. Fargal M. Contextualization. Translation theories. UK: Publishing House Cambridge Scientists, 2015
2. Hatim B. Translation. Extended reference. L.: Routledge, 2004
3. Malik T. Odamiylik mulki. Husnu xulq. – T.: Tohir Malik nomidagi nashriyot uyi, 2021
4. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2012
5. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
6. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
7. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3008-3020.
8. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 4943-4952.
9. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
10. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – C. 187-190.
11. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
12. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection in French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
13. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
14. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
15. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into "Historical Memory" in French and Uzbek Linguistic Traditions." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.

16. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
17. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.11 (2023): 490-492.
18. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.
19. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1176-1182.
20. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 879-884.
21. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023)